

BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Faxriddinov Abdulhakim Ziyaiddinovich¹, Marimbayeva Sohiba Ismail qizi²

¹Toshkent davlat agrar universiteti, "Agroiqtisodiyot" Kafedra assistenti

²Toshkent davlat agrar universiteti, "Agroiqtisodiyot, logistika va xizmatlar" Fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

E-mail: ¹abdulhakim.uz90@gmail.com, ²marimbayevasohiba@gmail.com

DOI: 10.61587/mmit.tiue.uz.v1i1.417

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank xizmatlari, masalan, to'lov xizmatlari, mobil va internet banking, plastik karta xizmatlari va hokozalar, raqamlashtirilayotgan davrda uning iqtisodiyotga qanday ta'sir ko'rsatayotgani tahlil qilinadi. Bank tizimini raqamlashtirishning ijobiy taraflari samaradorlikning oshishi, tadbirkorlik rivojlanishi, xarajatlar kamayishi va salbiy tamonlari kiberxavfsizlik muammolari, ish o'rinlarining kamayishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek bank xizmatlarini raqamlashtirishdan asosiy maqsad bank xizmatlarini tez va oson qilish, qog'oz hujjatlari sonini kamaytirish va xizmat xarajatlarini kamaytirishda kelib chiqayotgan muammolar va ularni qanday xal qilish asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: bank xizmatlari, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, raqamli bank tizimi, elektron to'lovlar, kiberxavfsizlik, onlayn xizmatlar, avtomatlashtirish.

ECONOMIC EFFICIENCY OF DIGITALIZATION OF BANKING SERVICES

Faxriddinov Abdulhakim Ziyaiddinovich¹, Marimbayeva Sohiba Ismail qizi²

¹Tashkent State Agrarian University, Assistant of the Department of "Agroeconomics"

²Tashkent State Agrarian University, student of Economics, Faculty of "Agroeconomics, Logistics and Services"

E-mail: ¹abdulhakim.uz90@gmail.com, ²marimbayevasohiba@gmail.com

Abstract. This article analyzes the impact of the digitalization of banking services, such as payment services, mobile and internet banking, plastic card services, and others, on the economy. The positive aspects of digitalizing the banking system — including increased efficiency, the development of entrepreneurship, and cost reduction — as well as the negative aspects, such as cybersecurity issues and the reduction of jobs, are examined. Furthermore, the article explains the main objectives of digitalizing banking services, namely making banking services faster and more convenient, reducing the amount of paper documentation, and lowering service costs, while also discussing the challenges that arise in this process and ways to solve them.

Keywords: banking services, digitalization, economic efficiency, digital banking system, electronic payments, cybersecurity, online services, automation.

Kirish.

Hozirgi raqamli texnologiyalar har bir professiyada dominantlik qilayotgan davrda, bank xizmatlarini raqamlashtirish dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda. An'anaviy qog'ozbozlik usuli ish bermay qolgan, mijozlar qulaylik va tezlik talab qilayotgan sharoitda yangi yondashuvlar talab qilinmoqda. Bu esa iqtisodiyotning ko'plab yo'nalishlarida tizimni avtomatlashtirilishiga olib keldi, xususan, bank xizmatlari bundan mustasno emas. Bank xizmatlarini an'anaviy qog'ozbozlik uslubidan elektron va masofaviy uslubga o'tirish iqtisodga ijobiy ta'sir qilmoqda, bundan mamlakat iqtisodiyoti ham rivojlanmoqda. Bu har taraflama aholi va bank xodimlariga qulaylik yaratmoqda, qog'oz uchun ketadigan xarajatlarning qiqarishidan tortib vaqtini tejashgacha, bu jarayon modernizatsiyalashishi xizmatlarning tez bajarilishini

ta'minlamoqdi. Bank xodimlari hujjatlarni qo'l bilan to'ldirishdan ko'ra, unga ketadigan vaqtni mijozlarga xizmat ko'rsatishga sarflaydilar.

Mazkur maqolada bank xizmatlarini elektron tizimga o'tirish jarayoni, ularning iqtisodiyotga qanday samara berayotgani ko'rib chiqiladi. Shuningdek mavjud muammolar, ularni qanday qilib hal samarali hal qilish yo'llari asoslanadi. Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi bugungi tadqiqotning asosiy masalasi hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

So'ngi yillarda iqtisodiyotning har bir sohasida olib borilayotgan avtomatlashtirish ishlari xizmatlar va ishlab chiqarishning sifati, tezligi, qulayligi va xarajatlarga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar mavjud jarayonlarning silliq, tez va muammolarsiz joyni o'zida xal qilishda muhim rol o'ynayotganini aks ettiradi. Bundan tashqari mavjud jarayonlarning mazmunini o'zgartirishda va ish jarayoni samaradorligini oshirishda o'z hissasini qo'shmoqda. Lekin an'anaviy usullardan farqli o'laroq bu raqamli texnologiyalar texnologik nazariy va amaliy bilim talab qiladi va bu zamonaviy kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishga ehtiyoj tug'diradi. Masalan, raqamli tahlil, kiberxavfsizlik, elektron to'lov, sun'iy intellekt, onlayn uzoq masofadagi mijozlarga xizmat ko'rsatish ko'nikmalari va boshqalar.[1]

Jahon iqtisodiy forumi tomonidan 2023-yil avgustda e'lon qilingan "Modernizing financial markets with wholesale CBDC" hisobotiga ko'ra 2020-2023-yillar oralig'ida raqamli to'lov tizimlari keskin rivojlangani ta'kidlanadi, ayniqsa COVID-19 davrida onlayn banking va elektron to'lovlar keskin oshgan. Bu davr bank xizmatlarini masofadan amalga oshirish, mobil banking, QR to'lovlar uchun burilish nuqtasi deb baholanadi. Hisobotda dunyoning ko'plab davlatlari iqtisodiyotni raqamlashtirishga urinayotgani aytib o'tiladi, xususan, Xitoy, Singapur, Shvetsiya va Fransiya. Bu sinovlar natijasida banklararo hisob-kitoblarni soniyada bajarish, vositachilarni kamaytirish, xarajatni pasaytirish va operatsion samaradorlikka erishilgan. Unda blockchain va CBDC texnologiyalari operatsiyalarni tezlashtirishda asosiy omil sifatida baholangan.[2]

Tadqiqot usuli (metod)

Mazkur maqolada bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodga qanday ta'sir qilayotgani, samaradorligini o'rganishda ilmiy-nazariy va tahliliy yondashuvlar qo'llanilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi tizimni avtomatlashtirishning ish jarayoni unumdorligi va samarasiga ta'siri va bu jarayonni amalga oshirishda duch kelayotgan to'siqlar va ularni qanday qilib oshib o'tishni aniqlashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

1.Tahliliy (analitik) metod

Raqamlashtirishning qaysi sohalarida keng qo'llanayotgani bu modellarning nazariy asoslari, ilmiy adabiyotlar va statistic ma'lumotlar o'rganildi.

2.Taqqoslash (komparativ) metodi

Bank xizmatlarini an'anaviy usulda va raqamli modellar orqali amalga oshirgandagi xizmat sifati, xarajatlar va vaqt sarfi, qulaylik va tezligi solishtirildi.

3.Empirik metod

Banklarda qo'llanayotgan raqamli texnologiyalar, payme, click, bank xizmatlaridan internet orqali foydalanish va blockchain texnologiyalarining amaliy natijalari tekshirildi.

4.SWOT tahlil

Bank xizmatlarini avtomatlashtirishning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va xatarlari baholandi.

Natijalar va muhokama.

Raqamlashtirish texnologiyalarining bank sohasiga kirib kelishi zamonaviy iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Iqtisodiyot tez rivojlanayotgan davrda bu texnologiyalarning mavjud potensialidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi. Natijada, xizmat ko'rsatish tezligi oshadi, xarajatlar va vaqt sarfi kamayadi, xavfsizlik kuchayadi, katta xajmdagi ma'lumotlarni saqlashga erishiladi, bankning iqtisodiy samaradorligi oshadi. Ayniqsa, takroriy, ko'p vaqt talab qiluvchi, zerikarli qog'ozbozlik ishlariga nuqta qo'yiladi. Xizmat ko'rsatish sohasida mijozlarning qulayligi katta ahamiyat kasb etgani bois, raqamli texnologiyalar tufayli xizmatdan foydalanish, masalan-hisob ochish, kredit olish va hokozalar, uchun bank filiallariga borishga o'rin bo'lmay qoldi. Bularni uy sharoitida onlayn mobil ilovalar orqali amalga oshirish imkoniyatiga erishildi.

Yana bir muhim jihat bu- fintech kompaniyalarining bank sektoridagi faolligi kuzatildi. Masalan, Paynet kompaniyasi 2025-yilning birinchi choragida 31trillion so'mlik elektron to'lovlarini amalga oshirgani va foydalanuvchilar soni 23millionga yetganini ta'kidlaydi. Bu ko'rsatkich raqamli moliyaviy xizmatlarga ehtiyoj katta ekanligini ko'rsatadi.

Lekin shunga qaramasdan, raqamli texnologiyalar bog'liq ayrim muammolar mavjud- kiberxavfsizlik, texnik nosozliklar, ma'lumotlarning tarqalib ketishi va ayrim hududlarda internet bilan kuzatiladigan muammolar. Bu esa banklar uchun kiber muhofaza kuchli bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Shunga qaramasdan, raqamli texnologiyalar iqtisodiyotning infrazuzilmasini zamonaviylashtirishda muhim omil hisoblanadi. [3]

1-jadval

Bank sohasini raqamlashtirishda samaradorlik

Ko'rsatkich	2020-yil	2025-2026-yil
Mobil banking foydalanuvchilar soni	4,1mln	13,2mln
Internet va mobil banking tranzaksiyalar ulushi	27%	71%
Elektron to'lov tizimlari foydalanuvchilari	5mln	23mln
Bankomat va self-servis qurilmalar soni	4ming	12ming+

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi iqtisodiyotda yangi bosqichni boshkab berdi. Bu texnologiyalar iqtisodiyotning ko'plab yo'nalishlarida qo'llanilmoqda, Xususan bank sohasida, ularni joriy qilish orqali xizmatning sifati, jarayon samaradorligini oshirish, vaqt va xarajatlarni qisqartirish va ish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon paydo bo'ldi. Mobil banking, blokchain va bulutli texnologiyalar kabi innovatsiyalar bank xizmatlarini yanada tez, qulay va xavfsiz holatga keltirmoqda. Biroq ushbu sohada ba'zi bir muammolarga uchrash tabiiy, masalan, bazi bir insonlarning texnologik savodi pastligi va shaxsiy ma'lumotlarning tarqalib ketishi xavfi kabilar, bularni hal qilish uchun kiberxavfsizlik tizimlarini kuchaytirish va aholi savodi oshirish talab etiladi.

Shuningdek, bu texnologiyalar mijozlarga xizmatlardan masofadan turib foydalanish imkonini beradi va vaqt va yo'l mablag'larini tejaydi. Bu esa banklarning raqobatbardoshligini oshiradi, moliyaviy inkluzivlik drajasini kengaytiradi. Ko'plab tadqiqotlarda, jumladan jahon iqtisodiy formula ham bunday texnologiyalar iqtisodiy o'sishda muhim omil sifatida qaralgan. Demak, bank xizmatlarini raqamlashtirish nafaqat bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Xolikulov O'.A.,Abdullayeva E."Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi"- "Tadqiqotlar" ilmiy jurnali,2024
2. Masxadaliyeva M. "Bank xizmatlarini raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri va jarayonlarni optimallashtirish" – "Innovatsion in science and technologies" jurnali, 2024.
3. World economic forum. "modernizing financial markets with wholesale CBDC" – World economic forum and Accenture, 2023.
4. World bank "financial sector assessment program(FSAP) " – World bank group.